

Normurodova Zamira Baxriddin qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Pedagogika
va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

IKKI TILDA SO'ZLASHADIGAN TALABALARNING TA'LIM JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

UOK: 159.9

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_4_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_4_8)

NORMURODOVA Z.B. IKKI TILDA SO'ZLASHADIGAN TALABALARNING TA'LIM JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Maqolada ikki va undan ortiq tilda muloqot qiladigan talabalarning bir tilda muloqot qiladigan talabalar bilan solishtirish kognitiv jarayonlar diqqat va xotira, mantiqiy masalalarni hal qilish ikki tilli talabalarda yuqoriroq rivojlanganligi, muammoli vaziyatlarga moslashish ham ikki tilli talabalarda yaxshiroq ekanligi va ikki va undan ortiq tilli talabalardagi ba'zi kamchiliklar yoritib berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: ikki tillilik, kognitiv jarayonlar, o'quv jarayoni, psixologiya ta'lim, pedagogika, hissiy moslashuv, muammolarni hal qilish, kognitiv jarayonlar, diqqat va xotira, o'quv faoliyati, kasbiy karyerasi, ikki tilli talabalar.

НОРМУРОВОДА З.Б. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СТУДЕНТОВ, ГОВОРЯЩИХ НА ДВУХ ЯЗЫКАХ

В статье рассматривается сравнение когнитивных процессов, таких как внимание и память, решение логических задач у студентов, говорящих на двух и более языках, с аналогичными процессами у студентов, говорящих только на одном языке. Установлено, что у студентов, владеющих двумя языками, эти когнитивные процессы развиты более высоко, а также они лучше адаптируются к проблемным ситуациям. В статье также освещены некоторые недостатки среди студентов, владеющих двумя и более языками.

Ключевые слова и понятия: двуязычие, когнитивные процессы, учебный процесс, психология, образование, педагогика, эмоциональная адаптация, решение проблем, когнитивные процессы, внимание и память, учебная деятельность, профессиональная карьера, двуязычные студенты.

NORMURODOVA Z.B. PSYCHOLOGICAL FEATURES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF STUDENTS SPEAKING TWO LANGUAGES

The article examines the comparison of cognitive processes such as attention and memory, solving logical problems in students who speak two or more languages, with similar processes in students who speak only one language. It has been established that students who speak two languages have these cognitive processes more highly developed, and they also adapt better to problematic situations. The article also highlights some disadvantages among students who speak two or more languages.

Key words and concepts: bilingualism, cognitive processes, educational process, psychology, education, pedagogy, emotional adaptation, problem solving, cognitive processes, attention and memory, educational activity, professional career, bilingual students.

Kirish. Bilingvizm va poliglottlik hozir zamonaviy dunyoning katta talabi desak mubolag'a bo'lmaydi, ammo shuni aytishimiz kerakki, ko'p tillarni bilish bizning etnosimiz uchun yangilik emas. Milliy qadriyatlarimizga oid manbalarda, moziyda ajdodlarimiz turli tabaqalarga farqlangan bo'lib, shulardan biriga ko'ra fuqarolar: Amiru-ulamo, Fozilu-fuzalo va faqiru-fuqaro tabaqalariga ajratilgan. Amiru-ulamolalar hozirda kundalik hayotimizda qo'llaniladigan ziyoli (oliy ma'lumotli) toifasiga to'g'ri keladi. Aholining 20-25 foizini tashkil qiluvchi fozilu-fuzalolar, yani o'rtahol ziyolilar: o'qish, yozishni biladigan, savodli tabaqa hisoblangan. Xalqimizning sevimli adibi Abdulla Qodiriy o'zining mashhur "Mehrobdan chayon" romanida ularni Mirzolar obrazida ifodalab bergan. Moziyda, Mirzolar, ya'ni o'qish-yozishni biladigan savodli toifa kamida uch tilni bilganlar. Ilmiy ishlarni arab tilida, badiiy yoki muzokara, diplomatiya ishlarini fors tilida, harbiy-boshqaruv ishlarini turk tilida yuritganlar. Ya'ni, har bir mirzo (ziyoli) bu tillarni bilishi shart bo'lgan¹. Shu o'rinda hozirgi zamon talabi bo'lgan ko'p tilda muloqot qila olish va maktablarda hamda oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni biladigan mutaxassislarga ehtiyoj balandligini ko'rib turibmiz. Bizning ilmiy tadqiqotimiz pedagogik oliy o'quv yurtlarini tamomlagan talabalar o'z yo'nalishida emas, boshqa yo'nalishlarda kasbiy karyerasini qilayotgani ijtimoiy psixologik sabablarini o'rganish va ko'p til bilishning shaxs rivojlanishiga, kasbiy karyeraga, ijtimoiylashuvga aloqalarini o'rganish deb tanlab olganmiz. Quyida tadqiqotimizdagi ikki va undan ortiq tilda muloqot qiladigan talabalarni va faqat ona tilida muloqot qiladigan talabalarni psixik jarayonlaridagi (diqqat, hotira, muammoni tez va mantiqan hal qilish) farqlarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan sinovimizni yoritib beramiz.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda nafaqat ta'lim jarayonida, balki ijtimoiy mehnat bozorida ham xorijiy tillarni bilish talab qilinmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan

videoselektor yig'ilishida: "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim" – deb ta'kidlab o'tdilar². Zero, O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Ikki va undan ortiq tilda muloqot qiladigan va ikki tilda sifatli ta'lim beradigan pedagog kadrlarga yurtimizda ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda, shu sababdan mavzimizni dolzarb deb hisoblaymiz.

Bilim bu – ma'lum ma'lumotni qabul qilib, uni ongli o'zlashtirish. Ko'nikma esa - egalangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati. Malaka - muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvi. Til bilishning ikki va undan ortiq tilda so'zlashning, tushunishning kognitiv bilish jarayonlariga aloqasini nazardan chetda qoldirish mumkin emas.

Bilingvizm (lotincha "*bi*" - ikki + "*lingua*" – til) deganda, ikki tilda so'zlay olishlik; ikki tilni bilishlik; ikki tildan foydalanishlik; ikki tillilik, ikki tilni tushinish qobiliyatlari nazarda tutiladi.

Ona tilini o'zlashtirishda asosan lingvistik bilimni qabul qilish uchun ma'lum didaktik usul qo'llaniladi. Bu jarayon didaktik integratsiya demakdir. Didaktik integratsiya shaxsni yaxlit rivojlantiradi. Qonuniyat tilni o'zlashtirish jarayonida eng ko'p takrorlanib turadigan universal bog'lanishlardir. Tilda shakl va mazmunning, til va nutqning, nazariya va amaliyotning, og'zaki va yozma nutqning o'zaro bog'liqligi har bir mashg'ulotda uchrab turadigan hodisalardir³. Shunga ko'ra, ularni ta'lim sharoitida tilni o'zlashtirish qonuniyatlari deb belgi-

¹ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Roman. "Asr oshgan asarlar" turkumi / Tahrir haya'ti: Bobur Alimov va boshq. - T.: "Sharq", 2004. - B 5.

² O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqdan. - <https://president.uz/oz/lists/view/4327>

³ Mengliyev B., Tojiyeva G. Tilshunoslikka kirish. – Qarshi: 2007. -173 b.

lash asoslidir. Bu qonuniyatlarining mohiyatini to'g'ri tushunish uchun tildan o'zlashtiriladigan o'quv materiallarining umumiy xususiyatlarini, talabalarining ta'lim faoliyatini va kasbiy yo'nalganligini tahlil etish zarur.

Ikki tillilik - bu inson ikki tilda biladigan hodisa kundalik muloqot va ta'lim uchun yetarlicha yuqori darajadagi faoliyatdir. Ikki tillili talabalar o'quv jarayonida kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarida ham foydali va ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bunday ikki tilli talabalarni psixologik xususiyatlarini o'rganish muvaffaqiyatli, samarali pedagogik usullar va dasturlarni ishlab chiqish ularni zamonaviy talabalarga moslashtirish va ularni kasbiy karyeraga yo'naltirish uchun muhim.

Ikki yoki undan ortiq tillarni biladigan talabalarining aqliy jarayonlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot. Tadqiqotda ikki tilli talabalarining bir tilda faqat ona tilida so'zlashadigan talabalarga nisbatan aqliy va kognitiv rivojlanishiga til bilishning ta'siri o'rganildi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotda oliy o'quv yurtlari talabalarining ikki va undan ortiq tilda muloqot qiladiganlari va faqat ona tilida muloqot qiladigan talabalarining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini aniqlash va solishtirish va ko'p til bilishning shaxs rivojlanishiga, kasbiy karyeraga, ijtimoiylashuvga aloqalarini o'rganish

Ishtirokchilar sifatida ikki tilni biladigan talabalardan 76 nafar talaba tanlab olindi. Guruhda ishtirokchilarning yoshi 20-35 yosh oralig'ida, ta'lim turi sirtqi, ta'lim tili rus tili sinaluvchilarning 34 nafari uch tilni - rus o'zbek va ingliz tilini bilishadi, 42 nafari - rus tili va o'zbek tilini bilishadi. Sinaluvchilarning 76 nafari - ta'lim tili o'zbek va ona tili o'zbek tili bo'lgan talabalardan tanlab olindi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Psixologiya fanida ikki va undan ortiq tillarda gapirishning afzalliklari, xususan, ijro etuvchi funksiyalaridagi jarayonlarni turli jihatlarida bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, G.A.Alferova, 2015; V.P.Belyanin, 2003; A.N.Voronin, 2018; A.N.Voronin, A.S.Rafikova, 2017; S.V.Luskaya, 2015; N.D.Pavlova 2011 yillarda mazkur mavzu bo'yicha tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ammo, jahon tilshunosligida J.F.Hamers, M.H.Blanc (Cambridge University), F.Grosjean (University of Neuchatel, Switzerland), Lena

V.Kremin (Concordia University, Canada), Sharon Unsworth, Susanne Brouwer (Radboud University, Nijmegen), Elise de Bree, Josje Verhagen (University of Amsterdam)¹. E.M.Vepeshagin, L.V.Yaccman, M.A.Kocmina, N.V.Ufimseva, A.V.Kipilina, E.C.Gpisenko, I.G.Ovchinnikova, I.C.Bashkova, O.V.Balyacnikova, G.A.Chepkasova, G.N.Chipsheva (Rossiya) kabilar tomonidan bilingvizm, bilingval shaxs, bolalar nutqi, bilingvizmning ta'sir xususiyatlari kabi masalalar turli tillar doirasida o'rganilgan². U.Veynrex "bilingvizm" tushunchasini ilk marotaba lingvistik termin sifatida qo'lladi. Biroq ungacha XIX asrda V.A.Bogoroditskiy, I.A.Boduen de Kurtene, V.M.Jirmunskiy, E.D.Polivanov, L.V.Shcherba va boshqa olimlar ham bu masalaga to'xtalib o'tishgan.

E.A.Klimov kasbiy faoliyatning cbfatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi³.

O'zbekistonlik psixolog tadqiqotchilar Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I, Xolyigitova N.X. talabalardagi kasbiy karyera muammolariga doir izlanishlar olib borilgan.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, oliy o'quv yurtining talabalarining ikki va undan ortiq xorijiy tilni bilishini kasbiy karyerada va psixik jarayonlarni yaxshi rivojlanishidagi, hayotiy muammolarni hal qilishdagi ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish.

Tadqiqotning obyekti Kimyo Xalqaro Universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3 bosqich 64 nafar talabalar va Maktabgacha ta'lim fakulteti 3 bosqich 64 nafar talabalar.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, kognitiv vazifalar testi (Cognitive Task Performance)dan foydalandik. Bu test talabaning diqqatini, xotirasini va muammolarni hal qilish qobiliyatini o'lchashga mo'ljallangan. Ushbu testlar quyidagilarga asoslanadi: Shartli eslab qolish testlari: Talabalar ma'lum vaqt

¹ Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. (PhD) Avtorefrat Dis. ... ped. fan. nom. – Nukus: NDPU, 2019. – 143 b.

² Климов У.А. Психология профессионального самоопределения: учеб.пособие для студентов высш. учеб. заведений – М.: издательский центр "Академия", 2010. 304 с.

³ Xolyigitova N.X. Shaxsning professional karyerasini shakllanishida kasblarni psixologik tasnifi va uning mohiyati. // Zamonaviy ta'lim, № 10 (143), 2024 6-bet.

davomida o'qitilgan ma'lumotni (matn, rasm, raqamlar) eslab qolishlari so'raldi. Ikki tilli va bir tilli talabalarining eslab qolgan ma'lumotlarini qog'ozga yozib berish so'raldi. Bu testlar qisqa muddatli va operativ xotirani baholash uchun ishlatdik. Mantiqiy muammolarni hal qilish: Talabalarga muammoli vaziyatlar yozilgan varaqlar (keysar) tarqatildi va muammoga yechim berish so'raldi. Muammolarni hal qilish qobiliyatini baholashda ishlatiladi, bu kognitiv rivojlanishning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri deb hisoblaymiz. Diqqatni baholash testlari turkumiga:

1. Talabalarga ekranda ketma ket qo'yilgan xar xil narsalarning sur'ati ko'rsatilda va ekran o'chirildi talabalardan qanday ketma ketlikda va nimalarning sur'ati bo'lganini yozib berish so'raldi.

2. Diqqatni saqlash va qayta tiklashni baholash uchun, bir nechta faoliyatni bir vaqtning o'zida bajarish (multitasking) sinovi o'tkazildi.

Ikki tilli talabalarining kognitiv xususiyatlari.

Yaxshilangan kognitiv moslashuvchanlik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir tilda so'zlashadigan talabalar ikki tilli talabalar bilan solishtirganda, ikki tilli talabalarda kognitiv moslashuvchanlik yuqoriroq darajada ekanligi aniqlangan.

Buning sababi shundaki, ular doimo ikki tilni ongli almashtirish tiradi va bu qobiliyat talabada o'zgarishlarga moslashish va sharoitlarda noaniqliklarni, muammolarni samarali hal qilishni rivojlantiradi. Bunday mahorat ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ulardagi o'quv fanlari va kasbiy karyera haqidagi tushunchalari aniq va ravshanlashadi.

Ko'p vazifalarni bajarish diqqatni taqsimlash qobiliyatini baholaganda quyidagi natijalarni oldik.

Ikki va undan ortiq tilda so'zlashadigan talabalar bir tilli talabalarga nisbatan bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni yaxshiroq bajargani kuzatildi. Bu ikki tillilik ularning miyasida doimiy ravishda tilni almashtirish fikrlaganda so'zlarni ikkinchi tiliga avtomatik tarjima qilish va farqlash bilan izohlanadi va til tizimlari o'rtasida almashinish talabaning ijtimoiy faoliyatini ham ma'lum darajada yaxshi ekani kuzalindi. Bunday qobiliyatlar ularga stressli vaziyatlar bilan muvaffaqiyatli kurashishga yordam beradi.

Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik kurilmalar, iqtidor aqliy mehnatga, ijtimoiy-iqtisodiy mehnat bilan uzaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. Har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema buyicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karyera va boshqalar¹. Kasbiy yo'nalganlik, ma'lum bir kasbga qobiliyat iqtidorni shakllanishida til bilishlikni o'rni bor va ikki hamda undan ortiq tilda muloqot qilishda miya faoliyatini yaxshilanishi tadqiqotlarda kuzatilgan. Ko'p tilli talabalarining fikrlashlari muammoni hal qilish va mantiqan javob berish sinovimiz shuni ko'rsatdi: bir tilli talabalarga nisbatan ikki tillilarda fikrlash turi - bir ma'lumotni o'zgartirishning individual usuli farq qildi, fikrlash turi professional, kasb faoliyatning muayyan turlarida muvaffaqiyatli tanlov qilishingiz mumkinligi va hozir ham o'z tanlovidan o'qiyotgan yo'nalishini ongli va o'zi tanlaganini ko'rsatdi. Axborotni qayta ishlashning individualligi eng muhim shaxsiy xususiyati bo'lib, uning faoliyat uslubini, kasbiy moyilligini, qiziqishlari va kasbiy yo'nalishini belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p tilda so'zlashadigan talabalarda til aralashuvi bilan bog'liq muammolar ham namoyon bo'ldi. Ko'p tilni bilishning kognitiv foydasi ko'p bo'lishi bilan birga ikki tilli talabalar duch kelishi mumkin bo'lgan til aralashuvi tufayli qiyinchiliklar — bitta til «to'sqinlik qilganda» boshqasidan foydalanish so'zlaganda mantiqan to'g'ri kelgan boshqa til-dagi so'zni ishlatish kabi muammolar namoyon bo'ldi, va bu nutq va yozishda xatolarga olib keldi, ayniqsa, aniq so'zni yoki formulani eslab qolishda va terminologiya bilimlarini namoyon qilish jarayonlarida yaqqol ko'rindi. Bundan tashqari, ikki tilli talabalar quyidagilarni boshdan kechirishlari mumkin: ikki madaniy muhit o'rtasida almashinish zarurati tufayli emotsional o'zgarishlar, bu hissiy beqarorlikka olib kelishi mumkin, xulq atvorida va o'zini boshqa madaniyatga mos tutishida va madaniyatni o'zgarishi ham kuzatildi va ayniqsa boshqa til muhitida o'qishning dastlabki bosqichlari ko'rinadi. Biroq,

¹ Akimova M., Gurevich K. Psixologicheskaya diagnostika. - SPb: Piter, 2003. - 656 s. 5.

1-jadval. Respondentlarning tajribadagi natijalari

№	Guruhlar	Hotira mashqalari		Diqqatni tekshirishga qaratilgan mashqlar		Mantiq bilan muammoni hal qilish	
1	Boshlang'ich ta'lim o'zbek guruhleri	44 ta	68%	40 ta	62%	46 ta	72%
2	Boshlang'ich ta'lim rus guruhleri	46 ta	72%	44 ta	68%	49 ta	77%
3	Maktabgacha ta'limning o'zbek guruhleri	35 ta	56%	42 ta	66%	44 ta	68%
4	Maktabgacha ta'limning rus guruhleri	41 ta	64%	46 ta	72%	46 ta	72%

bu talabaning fikrlashiga, ongli ravishda o'zini boshqarishiga ham bog'liq (1-jadval).

Xulosa. Talabalarining ikki va undan ko'p tillarda muloqot qilishining psixik jarayonlarga (diqqat, hotira, faoliyat), muammolarga mantiq bilan yechim topish, kasbiy karyerani rivojlanishida o'rni beqiyos.

Boshlang'ich ta'lim o'zbek guruhleri talabalarining xotira mashqlarida ko'rsatgan ijobiy natijasi 68%ni, boshlang'ich ta'lim rus guruhleri talabalarining 72%, boshlang'ich ta'lim o'zbek guruhleri diqqatni tekshirish uchun berilgan mashqni bajarishdagi ijobiy natijasi 62%, boshlang'ich ta'lim rus guruhleri taklabalarining ijobiy natijasi 68% ni, boshlang'ich ta'lim o'zbek guruhleri talabalarining muammoni mantiq bilan hal qilishga qaratilgan sinovda 72%, ta'lim tili rus tili bo'lgan guruh talabalari esa 77% ni ko'rsatdi. Maktabgacha ta'limning o'zbek guruhleri xotirani tekshirishdagi sinovda 56%ni, ta'lim rus tilidagi guruh talabalari esa 64%ni, maktabgacha ta'limning o'zbek guruhleri diqqatni tekshirishimizda 66%ni, rus tilida ta'lim oladigan

talabalar 72%ni, muammolarni mantiq bilan hal qilishga qaratilgan sinovda ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan guruhi talabalari 68%, rus tilida ta'lim oladigan talabalar 72%ni ko'rsatishdi.

Yuqoridagi 1-jadvaldan hulosani qilsak, ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan talabalarining 100% millati o'zbek va ular faqat o'zbek tilida muloqot qilishadi, ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda o'qiydigan talabalarining 80% o'zbek va ular rus hamda o'zbek tilida muloqot qilishlarini inobatga olganimizda ikki tilda muloqot qiladigan talabalarda, bir tillilarga nisbatan kognitiv jarayonlar rivojlangan va tezroq ekanligi namoyon bo'ldi.

Talabalar oliy o'quv yurtini tamomlaganida kamida ikkita tilda muloqot qila olishini va kasbiy faoliyatida ham o'z ustunligini ko'rsata olishi, kasbiy karyerasini o'zi tamomlagan yo'nalishda davom ettirishiga yo'naltirish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Roman. "Asr oshgan asarlar" turkumi / Tahrir haya'ti: Bobur Alimov va boshq. - T.: "Sharq", 2004. - B 5.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqdan. - <https://president.uz/oz/lists/view/4327>
3. Mengliyev B., Tojiyeva G. Tilshunoslikka kirish. - Qarshi: 2007. - 173 b.
4. Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi. (PhD) Avtorefrat Dis. ... ped. fan. nom. - Nukus: NDPU, 2019. - 143 b.
5. Климов У.А. Психология профессионального самоопределения: учеб.пособие для студентов высш. учеб. заведений - М.: издательский центр "Академия", 2010. 304 с.
6. Holiyigitova N.X. Shaxsning professional karyerasini shakllanishida kasblarni psixologik tasnifi va uning mohiyati. Zamonaviy ta'lim № 10(143), 2024 6-bet.
7. Akimova M., Gurevich K. Psixologicheskaya diagnostika. - SPb: Piter, 2003. - 656 s. 5.
8. <https://uz.wiktionary.org/wiki/bilingvizm>